

OYBEK BADIY MEROSINING O'RGANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**X.SH.Onarboyeva****Samarqand davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyot kafedrası doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21101784>**

Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) o'zbek adabiyoti va tilining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkor sifatida ilmiy-adabiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelgan. Uning badiiy merosi adabiyotshunoslikda nisbatan keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, tilshunoslik nuqtayi nazaridan hali yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu maqolada Oybek ijodining adabiyotshunoslik va tilshunoslikda o'rganilish holati tizimli tahlil qilinib, mavjud tadqiqotlarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatiladi hamda kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlar belgilangan.

Oybek ijodi dastlabki bosqichdayoq adabiyotshunoslik e'tiboriga tushdi. Jumladan, adabiy tanqidchilik sohasida faqat uch olim – H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, N.Karimovning Oybek hayoti va ijodiga bag'ishlangan fundamental monografiyalari, kitob va risolalarining o'ziyoyq yigirmaga yaqin. Ular orasida adib she'riyati va nasri atroflicha o'rganilgan "G'oyaviylik va mahorat", "Adibning mahorati", "Oybek mahorati" singari fundamental monografiyalar; yozuvchi ijodi ilk bor uning xarakteri va hayot yo'li bilan bog'liqlikda, badiiy-ilmiy yo'nalishda yozilgan "Ajoyib kishilar" hayoti seriyasidagi nashrlar mavjud. Bundan tashqari adibning XX jildlik asarlar majmuyi va har bir jildga ilova qilingan tekstologik tadqiqot natijalari, Zarifa Saidnosirovaning Oybek hayoti va ijodiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "Oybegim mening" nomli risolasida bu ulkan so'z so'z san'atkorining badiiy merosi atroflicha tadqiq qilingan. Adib ijodining adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilishida M.Osim, S.Mirvaliyev, I.Sultonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, N.Xudoyberganovlarning o'nlab maqola va tadqiqotlarining o'rni beqiyos. Jumladan, taniqli adib M. Osimning «Oybek va uning she'rlari» [1] nomli maqolasida ilk bor shoir asarlaridagi tuyg'u-kechinmalar tasviri, uslubidagi betakror qirralar nozik kuzatishlar asosida yoritiladi. Professor S.Mirvaliyevning «Hayot va kurash poeziyasi» [2] kitobi olimning nomzodlik dissertatsiyasining monografik holatidir. Unda Oybek dostonlarining til qurilishi, tasviriy vositalardan foydalanish mahorati birinchi bor monografik yo'sinda tahlil etiladi, umumlashtiriladi. Atoqli adabiyotshunos, professor H.Yoqubovning «Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat» [3] nomli monografiyasi doktorlik dissertatsiyasiga asos bo'lgan edi. Unda Oybek she'riyatida g'oyaviylik va mahorat, lirik xarakter va konflikt, lirik tasvir va uslub, lirik obraz va peyzaj masalalari ilk bora atroflicha tadqiq etilgan. «Adibning mahorati» [4] nomli monografiyasida esa prof. H.Yoqubov buyuk Oybek nasri bilan dostonchiligini, epik janrdagi badiiy mahorati sirlarini umumlashtirishga, adib she'riyati, nasri, ilmini davr va zamon bilan, adabiy an'analar va adabiy jarayon bilan yaxlit uyg'unlikda tadqiq etishga muvaffaq bo'ladi. Akademik M.Qo'shjonovning «Oybek mahorati» [5] kitobida, asosan, yozuvchi romanlaridagi mahoratni o'rgangan, bu mahoratni belgilagan omillarni tahlil etgan, yozuvchi badiiyatidagi o'ziga xosliklarni ta'minlagan asarning ichki olamidagi alohidalik va chambarchaslikni (masalan, xarakter, kompozitsiya, syujet) va ba'zi dostonlarida obraz yaratish masalasini tadqiq etgan bo'lsa, atoqli adabiyotshunos, professor N.Karimovning «Ilhom chashmasining ajib mavjlari» [6] risolasida adibning ijodxonasiga - ba'zi dostonlari va prozaik asarlarining yaratilish tarixiga nazar tashlab, adib merosining ochilmagan qirralariga e'tibor qaratdi. Ilk bor Oybek nasriga istiqlool g'oyalari nuqtayi nazaridan yondashdi. Professor L.Qayumovning «Olmos iste'dod» [7] risolasida esa adib romanlari va dostonlarining mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi orqali badiiy dunyosi yoritiladi.

Folklorshunos O.Sobirovning «Oybek ijodida folklor» [8] kitobida adib romanlari hamda dostonlarida xalq ogʻzaki ijodi anʼanalari kuzatiladi. Akademik B.Nazarovning «Bu sehrli dunyo» [9] kitobida Oybekning adabiy-tanqidiy hamda estetik qarashlari tahlil doirasiga tortilgan. Taniqli olim I.Gʻafurovning «Yurak-alanga» [10] kitobidagi «Sheʼrga sochilgan yulduzlar» maqolasida esa shoir sheʼriyatida badiiy talqin jozibasi, ifoda xillarining oʻziga xosliklari yoritiladi. Oybek tavalludining 80 yilligi munosabati bilan nashr etilgan «Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati» [11] toʻplamida ulkan isteʼdod sohibining nasriy hamda sheʼriy merosi adabiy jarayon va ijodiy metod, obraz va obrazlilik, gʻoyaviylik va badiiylik singari masalalar asosida tahlil etiladi. Shoir va olim Jamol Kamolning «Lirik sheʼriyat» [12] kitobida Oybekning ijodiy individualligi badiiy idrok va ijodning xos jihatlari asosida yoritiladi. Taniqli adabiyotshunoslar S.Shermuhamedov bilan S.Mirzayevning «Oybek va oʻzbek sovet adabiyoti» [13] risolasida shoirning dostonchilikdagi mahorati, 20-30-yillar sheʼriyati uygʻun tahlilga tortiladi. «Ulkan isteʼdod sohibi» [14] maqolalar toʻplamida esa Oybek nasri va nazmi adabiy-estetik qarashlaridan kelib chiqib oʻrganiladi. adib va adabiyotshunos U.Hamdammovning «30-yillar oʻzbek sheʼriyatida «sof lirika» muammosi» (Oybek sheʼriyati asosida) [15] mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasida tuygʻu va kechinmalarning obraz va mavzu talqinidagi estetik qimmatini tadqiq etiladi. Taniqli adib va adabiyotshunos olim X.Doʻstmuhammadning «Ozod iltirob quvonchlari» [16] kitobida Oybek ijodiga jahon adabiy kontekstidan yondoshiladi. Yapon adibi Akutagava ijodi bilan mushtarak jihatlarga eʼtibor beriladi. Shuningdek, Oybek tavalludining 100 yilligiga bagʻishlangan Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari asosidagi «Betakror isteʼdod sohibi» [17] maqolalar toʻplamida ham adib asarlarining badiiyati, til xususiyatlari, falsafiy, tarixiy va maʼrifiy ahamiyati tadqiq qilinadi. A.Qayumovning «Akademik Oybek» [18] kitobida buyuk soʻz sanʼatkorining shaxs va ijodkor sifatidagi fenomeni chuqur yoritilgan. «Millatni uygʻotgan adib» [19] toʻplamida Oybekning nasriy hamda nazmiy asarlari misolida badiiyati, davr va ijodkor uslubining mushtarak va xususiy jihatlari, tasviriy vositalardan foydalanish usullari tadqiq etiladi. Adabiyotshunos J.Jumaboyevaning «XX asr oʻzbek sheʼriyatida psixologik tasvir mahorati» [20] kitobida Oybek va Choʻlpon lirik qahramonlariga xos jihatlari qiyoslanadi. Oybek lirik qahramonining oʻziga xosliklari koʻrsatib beriladi. A.Sabirdinovning «Oybek sheʼriyatida soʻz va obraz» [21] mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida esa gʻoyaviylik va obrazlilik masalasi tahlil markazini tashkil etadi. Maʼnodorlik va ohangdorlikni taʼmin etishda hassos ijodkorning soʻzdan foydalanish mahorati koʻrsatib beriladi. «Oybek ijodining maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyati» [22] nomli toʻplamlarida esa adib asarlarining badiiy-estetik qimmatini, soʻzdan foydalanish mahorati hamda til xususiyatlari oʻrganiladi.

Koʻrinadiki, mavjud ilmiy maqola, toʻplam va dissertatsiyalar Oybek ijodining adabiyotshunoslikda keng koʻlamda tadqiq qilinganini koʻrsatadi.

Tilshunoslikda Oybek ijodining oʻrganilishi adabiyotshunoslikka nisbatan ancha cheklangan. Koʻpincha uning asarlari lingvopoetik, leksik-semantik yoki stilistik tahlil obyekti sifatida qisman qamrab olingan. Dastaavval, tilimizning zabardast olimi N.Mahmudov «Oybek sheʼriyatidagi oʻxshatishlarning lingvopoetikasiga doir» [23] nomli maqolasida Oybek sheʼriyatining til xususiyatlari, leksik vositalardan foydalanish mahorati haqida oʻz mulohazalarini bayon etgan boʻlsa, keyinchalik Q.Samadov, S.Boymirzayeva nomzodlik va PHD dissertatsiyalarida adib asarlari lingvistik aspektida monografik planda tadqiq qilingan. N. Rahimova, O.Eshboyeva, R.Norqulova va kaminaning magistrlik dissertatsiyalarida Oybekning soʻz qoʻllash mahorati va uslubiga doir tahlillar oʻrin olgan.

Tilshunos Q.Samadovning nomzodlik dissertatsiyasida asos bo'lgan «Oybekning til mahorati» [24] risolasida adibning nasriy asarlari, jumladan, “Qutlug’ qon”, “Quyosh qoraymas” romanlari, “Bolalik” qissasi va dostonlarining til xususiyatlari fonetik, morfologik, leksik, sintaktik jihatdan tahlil qilinib, Oybekning soʻz qoʻllash mahorati, individual uslubi ochib berilgan.

S.Boymirzaeva “Quyosh qoraymas” romani materiali asosida qoʻshma gaplarning semantik-stilistik xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan [25]. Muallif Oybek uslubidagi qoʻshma gaplarning sinonimik imkoniyatlari, stilistik figuralar va sintaktik asimmetriyaning badiiy funksiyalari kompleks tahlil qilingan.

Bundan tashqari, tadqiqotda yozuvchi badiiy nutqida qoʻshma gaplarning lisoniy shakllari, semantik munosabatlari, sinonimik imkoniyatlari va uslubiy funksiyalari atroflicha ochib berilib, qoʻshma gaplar sinonimiyasi — biriktirish, ayirish, zidlash, payt, shart va sabab-natija munosabatlari ifodalovchi qoʻshma gaplarning bogʻlovchisiz, bogʻlovchili va ergashgan shakllari oʻrtasidagi sinonimik qatorlar chuqur tahlil etilgan. “Quyosh qoraymas” romani misolida bogʻlovchisiz shakllarning tabiiyligi, ekspressivligi va badiiy taʼsirchanligi alohida taʼkidlanadi. Sintaktik-stilistik vositalar — parallelizm, inversiya, ellipsis, anafora, epifora, antiteza va sintaktik asimmetriya kabi figuralarning qoʻshma gap tarkibida bajaradigan estetik va emotsional vazifalari koʻrib chiqilgan.

Individual uslub xususiyatlari — Oybekning idiolektida qoʻshma gaplarning matn tuzilishidagi roli, obrazlarni yaratish va psixologik holatni tasvirlashdagi ahamiyati ochib berilgan. “Quyosh qoraymas” romani asosida olib borilgan tahlil yozuvchining til vositalaridan foydalanish mahoratini koʻrsatib bergan va oʻzbek uslubshunosligiga hissa boʻlib qoʻshilgan.

N.Rahimovanning “Oybek dostonlarining til xususiyatlari” [26] deb nomlangan magistrlik dissertatsiyasi Oybekning sheʼriy ijodi — dostonlar tilini kompleks lingvistik jihatdan oʻrganishga bagʻishlangan. Muallif Oybekning “Dilbar – davr qizi”, “Oʻch”, “Baxtigul va Sogʻindiq”, “Navoiy”, “Qizlar”, “Davrim jarohati” kabi dostonlarining fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va stilistik xususiyatlarini aniqlash, adibning poetik mahoratini, obraz yaratishdagi til imkoniyatlaridan foydalanishini ochib berishga harakat qilgan. Oybek uslubidagi xalqchilik va individual xususiyatlarini, xalq ogʻzaki nutqiga xos elementlarning sheʼriy matnda qoʻllanilishi va ularning badiiy taʼsirchanlikdagi oʻrnini aniqlashga uringan.

O.Eshboyeva magistrlik dissertatsiyasida [27] “Quyosh qoraymas” asarini leksik-stilistik xususiyatlarini tadqiq qilishga harakat qilgan. Bizning magistrlik dissertatsiyamizda [28] ham “Quyosh qoraymas” romani tili, yozuvchi uslubi, badiiy tasvir vositalari (individual epitet, metafora, oʻxshatish) dan foylanish mahorati, soʻzning asar badiiyatidagi kuchi va oʻrni borasida gap boradi. Asosan, statistik tahlil metodi asosida olib borilgan tadqiqot ishida Oybekning soʻzdan foylanish mahorati ochib berilgan va asarning chastotali, ters va alfavitli lugʻatlari yaratilgan.

Oybek ijodi adabiyotshunoslikda yaxshi oʻrganilgan boʻlsa-da, tilshunoslikda hali keng qamrovli tadqiqotlar talab etiladi. Oʻzbek tili va adabiyotiga ulkan hissa qoʻshgan Oybekdek ulkan soʻz sanʼatkorining ijodiy meʼrosini oʻrganish yuqorida keltirilgan ishlar bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Bundan tashqari Qarshiboy Samadov tomonidan olib borilgan kuzatishning amalga oshirilganiga ham 64 yil vaqt oʻtdi. Zero, davr ham tadqiqotchilar oldiga yangi talablarni qoʻymoqdaki, bugun aytilgan har bir gap, oʻrtaga tashlangan har bir fikr-mulohaza ilmiy asosga qoʻyilgan boʻlishi, ularning barchasi mustaqillik mafkurasiga xizmat qilishi lozim boʻladi.

Bu fikrni Oybek badiiy-estetik merosi talqini va tahlili haqida ham bemalol aytish mumkin. Shu paytga qadar yozuvchi asarlari tilini lingvistik, lingvostilistik nuqtai nazardan oʻrganish

bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirildi va ular o'zbek badiiy manti tahlili taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Lekin zamon oldimizga adib ijodini yangicha talqin etish vazifasini qo'yayotgan ekan, uning ma'naviy merosini o'rganishga eskicha usullar bilan yondashib bo'lmaydi.

Davr Oybek asarlari tilini mukammal o'rganish vazifasini kun tartibiga qo'yayotgan ekan, avvalo, shu paytga qadar amalda bo'lgan tahlil metodlarini qayta ko'rib chiqishimiz zarur bo'ladi. Bugun yozuvchi asarlari matnida uchraydigan e'tiborni tortuvchi va obrazlilik bo'yog'iga ega bo'lgan bir necha til birligini ajratib olish va uni tahlil qilib berish bilan Oybekning badiiy mahorati haqida to'laqonli mulohaza yuritib bo'lmaydi. Biz juda muvaffaqiyatli va mahorat bilan qo'llangan deb xulosa chiqargan bu til birligining yana qandaydir ma'nolari adib asarlari matnining yana qayerlaridadir yashirinib, e'tiborimizdan chetda qolib ketgan bo'lishi mumkin. Anglashiladiki, yo'l-yo'lakay, uzuq-yuluq tanlab olingan til materiali atroflicha xulosa chiqarishimizga imkon bermaydi va hamisha bir tomonligicha qolaveradi. Shunday ekan 60- yillarda boshlangan Oybek asarlarining til xususiyatlarini tadqiq etishni zamonaviy metodlar asosida davom ettirish va uning o'ziga xos uslubini ana shu til materiallari asosida ko'rsatib berish kerak deb hisoblaymiz.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili, uslubi muammolari bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining adabiy asarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga, ularning badiiy estetik ta'sirini, qimmatini yaxshiroq tushunishimizga, yozuvchi ijodiy uslubini kengroq diapazonda o'rganishimizga sabab bo'lmoqda. Lingvistik birliklarning adabiy yoxud poetik asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini tahlil qilish borasida hali ko'plab tadqiqotlar yaratilishi kerak deb hisoblaymiz.

Xususan, Oybekning barcha asarlari, jumladan, uning shoh asari deb hisoblangan, lekin tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolgan - "Navoiy" romanining til xususiyatlarini tadqiq etishni davom ettirish, ijodkor asarlarining izohli, alfavitli, ters, chastotali lug'atlari, mualliflik korpusini yaratish, statisti-matematik va qiyosiy metodlar aspektida tadqiq qilish adibning o'zbek tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga aniqliklar kiritish va ijodiy uslubini ana shu til materiali asosida ko'rsatib berish o'z dolzarbligini o'zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Osim M. Oybek va uning she'rlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1989. – 11 avgust.
2. Mirvaliev S. Hayot va kurash poeziyasi. -T.: O'zdavnashr, 1962. -173 b.
3. Yoqubov H. Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat. -T.: O'zfanakadnashr, 1963. -188 b.
4. Yoqubov H. Adibning mahorati. T.: Fan, 1966.- 310 b.
5. Qo'shjonov M. Oybek mahorati. -T.: Badiiy adabiyot, 1965. - 355 b.
6. Karimov N. Ilhom chashmasining ajib mavjlari. -T.: Fan,1982. - 56 b.
7. Qayumov L. Olmos iste'dod. -T.: O'zbekiston, 1965. - 36 b.
8. Sobirov O. Oybek ijodida folklor. -T.: Adabiyot va san'at, 1975. - 104 b.
9. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. -T.: Adabiyot va san'at, 1980. - 173 b.
10. G'afurov I. Yurak - alanga. -T.: Adabiyot va san'at, 1985. - 294 b.
11. Oybek ijodiy metodi va badiiy mahorati (maqolalar to'plami). -T.: Fan, 1985. - 208 b.
12. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. -T.: Fan, 1986. - 144 b.
13. Shermuhamedov S., Mirzaev S. Oybek va o'zbek sovet adabiyoti. -T.: Fan, 1987. - 60 b.

14. Ulkan iste'dod sohibi (maqolalar to'plami). 1-2-kitoblar. -Termiz, 1990. -138 b.
15. Hamdamov U. 30-yillar o'zbek she'riyatida «sof lirika» muammosi (Oybek she'riyati asosida): Filol.fanlari nomzodi ... dis. -T., 1997. - 142 b.
16. Do'stmuhammad X. Ozod iztirob quvonchlari. -T.: Ma'naviyat, 2000. – 112 b
17. Betakror iste'dod sohibi. -Termiz, 2005. -B. 185.
18. Qayumov A. Akademik Oybek. -T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005.– 108 b.
19. Millatni uyg'otgan adib. -T.: O'zMU, 2005. -184 b.
20. Jumaboeva J. XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati. -T.: Fan, 2004. - 334 b.
21. Sabirdinov A. Oybek she'riyatida so'z va obraz.: Filol.fanlari nomzodi ... dis. -T., 1993. -138 b.
22. Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. -T., 2005. -17 b.; Oybek ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati. -Qarshi, 2005. -46 b.
23. Mahmudov N. Oybek she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi. O'zbek tili va adabiyoti, 1985. № 6.
24. Samadov Q. Oybekning til mahorati. -T.: TDPI nashr., 1991. - 102 b.
25. Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi.: Filol.fanlari nomzodi ... dis. -Sam., 2004. -125 b.
26. Rahimova N. Oybek dostonlarining til xususiyatlari.: Magistr. ... dis. – Far., 2012. – 68 b.
27. Eshboyeva O. So'z estetik imkoniyatlarining matnda voqecalanishi.: Magistr. ... dis. – Sam., 2016. – 80 b.
28. Onarboyeva X. Oybek romanlari stilistikasi (“Quyosh qoraymas” romani misolida): Magistr. ... dis. – Sam., 2024. – 90 b.